

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA YOSHLAR ONGIDA MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH VA TARIXIY ONGNINGNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchi, f.f.d (PhD)
Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida talaba yoshlar ongida milliy o’zlikni anglashd va tarixiy ongning shakllantirish zaruratini ijtimoiy-falsafiy tahlili qilingan. Shuningdek, Tarixi va ijtimoiy fanlar sohasida jamiyatda milliy o’zlikni anglash va tarixiy ongni rivojlantirish tadqiq qilish bilan belgilanadi.

Kalit so’zlari: Yangi O‘zbekiston, oliy ta’lim tizimida, inson ma’naviyati, milliy o’zligini anglash, ijtimoiy fanlar, tarix falsafasi, Uzluksiz ta’lim tizimi.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar har tomonlama uyg’un rivojlangan shaxsn shakllantirish va kamol toptirish, shu jumladan, yoshlarda tarixiy ongni mustahkam rivojlantirish uchun qulay ob’ektiv shart-sharoit yaratishga xizmat qilishi kerak. Shu sababli Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida aytganidek, “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonunni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarur. Bu jihatdan 2022-2030 yillarda uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shundagina biz iqtisodiyot sohasida ham har tomonlama bilimli zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishamiz. Haqiqatan ham, biz katta niyatlar bilan poydevorini qo‘yayotgan Yangi O‘zbekiston – Renessans davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovonlashtirishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Tarixiy tafakkurga ega bo‘lgan, voqealarni ob’ektiv baholay oladigan kishida bugun mamlakatimizda kechayotgan tub o‘zgarishlar kelajakka ishonchni uyg’otishi muqarrar. Ularni bolsheviklar amalga oshirgan inqilobga qiyoslash mumkin emas. V.H.Qo‘chqorov o‘rinli ta’kidlaganidek, “Mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotimizda, fuqarolar ongida, mentaliteti va turmush tarzida ro‘y bergen o‘zgarishlar haqiqatan ham salmoqqa ega, ammo ular eksport qilingan voqelik emas, balki xalqimizning

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

tarixiy-madaniy tajribasiga asoslanadi, millatimizning asrlar davomidagi orzu intilishlarining tarixiy natijasidir”^[50].57-58]

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan barkamol insonni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan ekan, barkamol inson tarbiyasi uning tarixiy ongini, tarixiy xotirasini tiklash va mustahkamlash asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham Q.O.Mahkamovning o‘rinli ta’kidlashicha, “Hayotiy tajriba va taassurotlardan hosil bo‘lgan ommaviy tarixiy ongdan, ya’ni tarixiy ongning quyi va o‘rta darajasidan uning yuqori va oliy darajasiga ko‘tarilish uchun maxsus tarixiy bilim taqozo etiladi. Bu esa tarix fani o‘qitilishi va darsliklarning yuksak darajada bo‘lishini talab qiladi. Buning uchun, eng avvalo, tarix fani darsi va darsliklarini quyidagi mezonlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq: a) har bir darslik zamiriga milliy g’oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari singdirilishi; b) quyi sinf o‘quv jarayonlarida darslarni samarali tashkil etish uchun tarixiy mavzularni yangi pedagogik texnologiyalarga moslashtirgan holda o‘yinlar tarzida o‘tish; v) yuqori sinfda faqat darslik mavzusi bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarda joriy voqeа-hodisalar, islohotlar, hukumat dasturlarini mustaqil sharhlay olish qobiliyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil munosabatni shakllantirish; g) tarix fani darsliklarida berilayotgan rasmlarning manbalarini ko‘rsatish; d) tarix fani jozibadorligini oshirish maqsadida darsliklar mavzulariga qo‘sishma mutolaa uchun tavsiya etiladigan tarixiy-badiiy adabiyotlar ro‘yxatini ilova qilish”^[51].22] kerak.

Tarixi qadimiy, ma’naviyati yuksak, milliy o‘zlikni anglash va iftixor tuyg’usi baland bo‘lgan xalq buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Tarix fani insonni vatanparvarlikka, fidoiylikka undaydi, ajdodlar moddiy va ma’naviy merosiga vorislik, burch va mas’uliyat hissi va tuyg’usi shakllanishiga yordam beradi. Tarixdan qusur, ayb, xato qidirish emas, mavjud muammolarni hal etish uchun saboq olish, kelajakni yaratish uchun yo‘riq, hamkorlik, quvvat izlagan ma’quldir. O‘tmishdan kamchilik topish qiyin emas, ammo oqil odam undan madad, najot izlaydi. Taniqli olim N.Jo‘raevshunday yozadi, “Aslini olganda, tarix faqat o‘tmish haqidagi ma’lumotlar yoki tushunchalar ham emas, uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylit mohiyati o‘tmishni o‘rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo‘lga solish, jamiyatni boshqarish borasidagi fikrlarni, g’oyalarni o‘zida mujassam etganida! Agar biz tarixga ana shu nuqtai

⁵⁰ Mahkamov Q.O. O‘zbekistonda o‘quvchilar tarixiy ongining yangilanishi va rivojlanishi (sotsiologik tahlil). Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2019. –B.22.

⁵¹ Jo‘raev N. Tarix falsafasi. –Toshkent: Ma’naviyat, 1999. –B.17.

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

nazardan qaraydigan bo‘lsak, uning butun ko‘lamini, insoniyat va jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqurroq anglaymiz” [52.17]

Tarixiy ongning jamiyat hayotini o‘ziga xos tartibga soluvchi tarbiyaviy me’yorlaridan biri sifatidagi ahamiyati, uni shakllantirish zarurati jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida amalga oshirildi. Afsonalarda, qahramonlik eposlarida ajdodlarga sig’inish yo‘lga qo‘yildi, o‘z jamoasining o‘tmishini bilish va ulug’lash, uning urf-odatlarini mehnatga, tabiatga, narsalarga, atrof-muhitdagi odamlarga munosabat normalari sifatida rioya qilish an’analari mustahkamlandi. Yangi asrning boshlarida o‘tmish bilan muloqotga inson dunyosini bilish usuli, ma’rifat, o‘zini o‘zi anglash va shaxsni rivojlanish vositasi sifatida qaraldi. Bugungi kunda tarixni o‘rganish sivilizatsiya rivojlanishining barcha tajribalarini, umumiyligini insoniyat madaniyatining barcha qadriyatlarini o‘zlashtirish va shu bilan birga o‘z Vatanining o‘ziga xosligini his qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashida tarixiy ongga nisbatan to‘g’ri munosabatni shakllantirishning ahamiyatini xolisona baholamaslik, ulardagi vatanparvarlik tuyg’ulari, fuqarolik mas’uliyati va umuman, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish sur’atlarining keskin pasayishiga olib keldi. Ushbu muammoga yondashuvni o‘zgartirish, aholining, avvalambor, yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishning yagona strategiyasini amalga oshiradigan davlat va fuqarolik jamiyati institutlari e’tiborining ob’ektiga aylantirish zarur. Bunday harakat strategiyasi tarixiy ong hodisasini, uning shakllanish va rivojlanish jarayoniga ta’sir qiluvchi determinantlarni chuqur ilmiy izlanishlarisiz amalga oshirish mumkin emas. Aynan shu nuqtai nazardan tarixiy xotiraning o‘tmishi va namoyon bo‘lish shakllari, tarixiy ongning barqaror stereotiplari, odatiy tasavvurlar va g’oyalar to‘plami, to‘g’ridan to‘g’ri yoki bilvosita baholash va hukmlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, jahonda yuz berayotgan voqealar tendensiyasini inobatga olgan holda «tarixiy ong», «milliy o‘zlikni anglash» o‘zaro tarkibiy-funksional jihatdan tahlil qilish ijtimoiy-falsafiy jihatdan to‘g’ri bo‘lib, uni barcha gumanitar fanlar tizimiga tadbiq qilish kerak;

Zamonaviy ta’lim tizimida tarixiy ong, o‘zlikni anglash tuzilmalari milliy ong va tafakkur, ona tili va milliy g‘oyaning tarkibiy bog‘liqligi asosida rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish kerak;

Yoshlar ongida milliy meros va qadriyatlar, umuminsoniy demokratik prinsiplar milliy o‘zlikni anglashning namoyon etuvchi muhim tuzilmani rivojlanishda audio, vizual, interaktiv metodlardan foydalanish kutilgan natijani beradi.

⁵² O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish Konsepsiysi. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Ta’lim tizimda milliy g‘oya, insonning tarixiy ongi, milliy o‘zligini anglashining muhim tuzilmasi sifatida fuqarolik darajasida o‘zligini anglashi millatlararo totuvlikni, hamjihatlikni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ijtimoiy fanlar sohasida jamiyatda milliy o‘zlikni anglash va tarixiy ongni rivojlantirish uchun odob-axloq qoidalari va ma’naviyatning oddiy tushunchalari hamda sodda talablarini boshlang‘ich sinflardan o‘rgatishni boshlash, “Ijtimoiy fanlarni o‘qitish konsepsiysi”ni ishlab chiqish, butun uzlusiz ta’lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit Ta’lim kodeksini ishlab chiqish lozim, deb hisoblaymiz. Yangi O‘zbekistonni Uchinchi Renessansni asoslarini barpo etishda yosh pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilar eng katta kuch, tayanch va suyanch ekanligi hisobga olinib, ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mehnat va turmush sharoitini yaxshilash talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Qo‘chqorov V.H. Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar (Siyosiy-falsafiy tahlil). Monografiya. – Toshkent: Akademiya, 2007. –B.57-58.
- 2.Mahkamov Q.O. O‘zbekistonda o‘quvchilar tarixiy ongingin yangilanishi va rivojlanishi (sotsiologik tahlil). Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2019. –B.22.
- 3.Jo‘raev N. Tarix falsafasi. –Toshkent: Ma’naviyat, 1999. –B.17.